

90P
2022
VI-VII
23-36

Safarbarlik chaqiruvi bo'yicha badal
puli ajratilganligi haqida ma'lumot

2021-yilda:
5799 nafarga 25,5 mird. so'm

2022-yilda (hozirgacha):
2794 nafarga 10,4 mird. so'm

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

23 (16476)
2022-yil, 23-aprel
shanba

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi.uz


Yoshlar siyosati 2757 murojaat
2-bet hal etildi

Moliya kundaligi
6-bet

Sof moliyaviy
qiyimatingiz qancha?

Birga o'qiyimiz
7-bet

"Kecha"ning "kunduzi"
qachon yoziladi?



BO'L AJAK YULDUZLAR

"BESH TASHABBUS OLIMPIADASI"
RESPUBLIKA BO'YLAB QIZG'IN DAVOM ETMOQDA

5-betga
qarang ▾

2 757 MUROJAAT HAL ETILDI

Yoshlar muammolarini o'rganishga har bir davrning eng muhim masalasi sifatida qaratilib kelingan va bu jarayon bugun o'zining yangi rivojanish davrini boshdan o'tkazmoqda. Ayniqsa, yoshlar bandligi va bu orqali ularning daromad topishlari ni ta'minlash borasida so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan qator amaliy choralar olib bormoqda. Ammo bu borada talay muammolar ham borki, ularni hal etish bo'yicha mas'ul idora vakillarining jonbozligi va vatanparvarligi bugun har qachongidan ham muhimdir.



O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlar murojaatlari bilan ishlash bo'yicha alohida tizim yaratilgan. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni shaffof holda adolatli ko'rib chiqish maqsadida **yoshlar.gov.uz** web-platformasi hamda **1093** ishonch raqami faoliyatini yo'lgan qo'yildi. Ijtimoiy tarmoqlar - facebook, instagram va telegram mesenjeri orqali to'g'irdan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

**1093 ISHONCH RAQAMIGA
3 OY DAVOMIDA QABUL
QILINGAN QO'NG'IROQLAR SONI
85 955 TANI TASHKIL ETMOQDA.**

Agentlikda Yoshlar murojaatlari shtabi faoliyati yo'lgan qo'yilgan bo'lub, yoshlar murojaatlari kunlik tuzhil qilinib, ijrosi joyiga chiqqan holda manzilli o'rganilyapti. Joriy yilning 3 oyi davomida Yoshlar ishlari agentligiga respublika bo'yicha 3 170 ta murojaat kelib

tushdi. Ularning 24,1 foizi bandlikni ta'minlash, 19,8 foizi kredit va 13,7 foizi yer-joy ajratish, 10,2 foizi tadbirkorlik faoliyatiniyo'lga qo'yish, 6,7 foizi subsidiya berish hamda 3 foizi moddiy yordam, ijtimoiy himoya va boshqa masalalarda. Shundan 2 757 tasi (87 foizi)ning ijrosi ta'minlangan bo'lub, ularning 1 032 tasi ijobji hal etilgan.

Masalan, Jizzax shahri "Ittifoq" mahallasida yashovchi fuqaro Xurshida Ahmadova subsidiya asosida tikuv mashinasini so'rab murojaat qilgan. Fuqaroning bandligini ta'minlash maqsadida amaliy yordam ko'satsilib, 4 million 600 ming so'm miqdordagi tikuv mashinasini subsidiya asosida berilgan.

Ohangaron shahri "No'g'ayqor'g'on" mahallasida yashovchi Durdon Erjanovaning murojaati ham o'rganiolib, u subsidiya asosida 8 million 282 ming so'm miqdordagi kompyuter jamlanmasiga ega bo'ldi. Marg'ilon shahrida yashovchi Sherli Dehqonov esa xizmat ko'satsish tizimini yo'lgan qo'yish maqsadida chang yutgich



**Javohir
SHAMSUTDINOV,**
Yoshlar ishlari agentligi
jismoniy va yuridik
shaxslarning muro
jaatlari bilan ishslash
bo'limi boshlig'i.

va "moyka" uskunalarini so'rab murojaat qilganida uning ham tababi ijobji hal etildi.

Biroq 154 ta murojaat qonun talablariga zid bo'lganligi uchun rad etilgan. 1181 ta murojaat masalasiga qarab turli instansiyalarga atroflicha ko'rib chiqish va hal etish uchun yuborilgan. Qolgan 336 ta murojaat yechimi bo'yicha belgilangan chora-tadbirlari ijrosi Yoshlar murojaatlari shtabi tomonidan alohida nazorat qilib borilmoqda.

Bundan tashqari, hisobot davrida Yoshlar murojaatlari shtabi tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijasida hududlarda yoshlar murojaatlari bilan ishlashda sustkashlikka yo'l qo'yish holatlari aniqlanib, agentlikning hududlarida 27 nafar rahbarlariga intizomiy jazo choralar qo'llanildi.



VOLONTYOR - YORDAMGA TAYYOR!

Odamlarga yaxshilik qilish, bir-biriga ko'maklashish, yiqilganni suyash, favqulodda holatda hozir-u nozir bo'lish o'zbek xalqiga xos fazilat. Koronavirus, "Sardoba" suv ombari to'g'onining o'pirilishi kabi talafotlarda ham buning isbotini ko'rgandik. Bunday vaziyatlarda yoshlarimiz ham yelkama-yelka turib ko'maklashmoqda.

Kuni kecha Jizzax viloyatida yuz bergen tabiy ofat - sel toshqinida ham buning amaliy isbotini ko'dik. Bunday fors-major vaziyatda fuqarolarimizga favqulodda yordam ko'satsish uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan zudlik bilan 305 nafr yoshlardan iborat volontyorlik guruhlari tuzilib, xonardonlar atrofi va ichida to'planib qolgan yomg'ir suvlarini chiqarib tashlandi.

Ko'ngililar talafot yetgan barcha hududlarda bo'lub, aholi va ularning xonardonlarida zarur amaliy ishlarni olib borish-yapti. Turli chiqindiga aylangan buyumlardan tozalash hamda jabrlanganlarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, o'quv qurollari va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun zarur anjomlarni topshirishga ko'aklashmoqda.

Elyor NORPO'LATOV,
Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisi



DONISHMAND QARIYALAR


intiluvchan yoshlar uchun

Keksallik umrning eng donishmand fasli. Qariyalar esa jamiyatning beba boyliklaridir. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvardagi qaroriga asosan mahallalarda yoshlar bilan ishlash uchun qariyalar ham jaib etilayotgani meni juda quvontirdi.

Yoshlar ishlari agentligi qoshida Faxriylar kengashi ham tuzildi. Kengashning ilk yig'ilishida agentlik direktorining o'rinosi Dilnozaxon Kattaxonova yoshlar ta'lif-tarbiysi, ma'naviyati, hayotda to'g'ri-namunalni yashashni o'rganishida biz, faxriylarning ibratimini niyoymada zarurligini aytganda jamiyat uchun kerak ekanimizni chuqur his etib, bundan boshimiz ko'kka yetdi.

Uchrashuvda Faxriylar kengashi a'zolari tasdiqlandi va ularning vazifalari belgilandi. So'zga chiqqanlar tarbiya borasida nimalar muhimligi, nimalarga e'tibor berish kerakligi, yoshlarning qiziqishiga oid ishlar haqida fikr va mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. Yig'ilganlarning qalbi jo'sh urib, Vatanimzga xizmat qilish, o'zlikni anglash vaqtini kelganini qalban his qildi. Qariyalarimiz ko'z oldiga yoshlik damlari kelib, yoshlar bilan birga bo'lishdek baxtgaga erishganidan xursand bo'di.

So'z olganlar o'zini o'zbekman deyidigan, ammo ruscha gapiradigan yoshlarimiz ko'payib ketayotganini afsus bilan tilga oldi. Yoshlarimiz orasida ko'p til biladanlar ko'pligi quvonarli, ammo o'z ona tilini bilmay, uni chuqur



o'rganmay turib o'zbekman deyishi kulgiga sabab emasmi?! Tarbiyaning hali bo'shligidan dalolat emasmi bu?! Ulug'arimiz bir necha tillarni bilgan va ular kam bo'lmagan. Demak, bugungi yoshlarimiz ham, eng avvalo, o'z ona tilini, keyin boshqa tillarni o'rganishi shart. Shunday bo'lsa tarbiyamizdagи nuqsonlar yo'qoladi. Yana bitta nuqson - bu har bir o'smirning qo'lidagi kitob o'rniqa qimmatbaho "sotka"lar. Mayli, zamon talabi bu ham, lekin bolalar undan oldin qo'liga kitob olsin, undagi hikmatlarni o'rganish, degan takliflar ham zamon ruhiga mosdir.

To'lqin QOZOQBOYEV,

Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Faxriylar kengashi a'zosi, faxriy journalisti

kam bo'lsa, yomg'ir, qor-u zizilaga ham bardoshli bo'ladi. Bolada bu poydevorni bunyod etish ona qornidan boshlanadi. Hali tug'ilmasidan bolaga alohida parvarish kerak. Chaqaloq dunyoga kelgach, go'zal tarbiya bilan birga unga chiroyli surat va rasmlarini ko'p ko'rsatish ona zimmasida. Bolalik davrida u "G'uncha", sal ulg'aygach "Gulxan" jurnali va "Tong yulduz" gazetasini, albatta, o'qishi kerak. O'qishni bilmagan taqdirda rasmlarini ko'rsin. Yaxshi rasm va matnlar bolaning esida qoladi. Ayniqsa, ertaklar, she'rlar, illoji bo'lsa, ularni yodlasin. Agar 14-15 yoshga yetgan o'g'il-qizlarimiz bi nechta she'r aytolmasa, rasm chiza olmasa, chiroyli so'zlar bilan gaplasha olmasa, bunga biz, kattalar aybdormiz.

Shu bois anjumanda men Yoshlar ishlari agentligi rahbariyatidagi tegishli mutasaddi idoralar bilan kelishgan holda bu nashrlarning maktab kutubxonalariga yetib borishini ta'minlashda bosh-qosh bo'lishini so'radim.

Faxriylar yana qator dolzarb masalalarni muhokama etib, zarur vazifalarni belgilab oldi. O'yaymanki, bu xayrli ishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Bu borada baracha faxriylarga, agentlik mutasaddilariga tashakkurimini bildiraman.

YOSHLAR YETAKCHISI QASHQADARYOLIK SARDORLAR BILAN

Kuni kecha Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev va Qashqadaryo Sardorlari ishtirokida Kasbi tumanidagi "Qamashi" mahallasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish aksiyasi o'tkazildi.

Loyha davomida A.Sa'dullayev Qashqadaryo sardorlari bilan suhbatlashib, ularga o'z maslahat va tavsiyalarini berdi. Aksiya doirasida 60 nafar sardor 20 sotix yer maydoniga 200 tupdan ortiq manzaralni ko'chat o'tkazdilar.



IMKONIYAT



Ijtimoiy himoyaga muhatoj, kam ta'minlangan va mehnat migrantlari oilalarining a'zolari, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bepul ta'lif olishda qo'shimcha imkoniyatlar belgilangan.

Imtiyoza da'vogarlar:

- ijtimoiy himoyaga muhatoj;
- kam ta'minlangan va mehnat migrantlari oilalarining a'zolari;

• nogironligi bo'lgan shaxslar;

• ishsiz va band bo'lmagan aholi.

Mehnat organlari yo'llanmasi asosida ishsiz va band bo'lmagan aholini quyidagi xarajatlari Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi:

- tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish, kasb-hunarnga tayyorlash, qayta tayyor-

lash va malakasini oshirish xarajatlari har bir tahsil oluvchi uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha;

• "Usta-shogird" an'anasi asosida milliy hunarmand-chilikka o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari har bir tahsil oluvchi uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravargacha.

Talabgorlar tuman va shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga murojaat qilishlari lozim. Arizalar o'h besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish (tekrishirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda) esa bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi.

Mazkur imtiyozlardan foydalanan uchun nomzodlarining yoshi chegaralanmagani.

YETAKCHILAR REYTINGI:

KIM QAYSI SOHADA ILG'OR?


Toshkent viloyatining 1020 ta mahallasidagi har bir yoshlar yetakchisiga samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Hujjat ishlarni masofadan turib bajarishlari uchun planshetlar bilan ta'minlandi. Planshetlar "Yoshlar daf'tari" va "Yoshlar portal'i" elektron platformasiga ulangan.

Shu bois viloyat yetakchilarini yoshlarni ish bilan band qilish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda yuqori ko'satsikchilariga erishib kelmoqda. Bugun ana shunday faol yetakchilar faoliyatiga nazar tashlaymiz.

100 NAFAR YOSH DOIMIY ISH O'RНИGA EGA BO'LADI

Oqqo'rg'on tumanidagi "Guliston" mahallasi yoshlar yetakchisi **Azamat Namozov** o'z huddida bo'sh ish o'rnlari yaratishga alohida e'tibor berayotir. Uning fikricha, qancha ko'p bo'sh ish o'mi ochilsa, mahalla yoshlari bosqqa joylardan ish qidirib sarson bo'lmaydi. Ayniqsa, ishi o'z uyi yaqinida bo'lgan xotin-qizlar xotirjam ishlashi mumkin.

— Mahallamiz aholisining 731 nafari 16-30 yoshlilar bo'lib, ularning 78 nafari ishsiz deb topildi, — deydi **Azamat Namozov**. — Ularning bandligini taminlash uchun hududimizda bo'sh turgan binoni tikuvaq qurmoqchi bo'lgan tadbirdikorimizga taklif etdik. Taklifimiz tadbirdikorga ma'qul kelgach ishga kirishildi. Hozir bino ta'mirlanib, tikuvaq mashinalari va ish yuritish uchun zarur asbob-uskunalarini o'rnatish ishlari olib borilyapti. Tez kunda tikuvaqlik seximiz ishga tushirilib, 100 nafar mahallamiz yoshlari doimiy ish o'rniaga ega bo'ladi.



ISHLAB CHIQARISH KORXONASI OCHILADI

Navbatdagi qahramonimiz **Tolibjon Tursinboyev** Piskent tumanidagi "Lolaariq" mahallasi yoshlariga yetakchilik qiladi.

— Xatlov orgali ishsiz va ijtimoiy muhofazaga muhtoj, iqtidorli va tadbirkorlikka qiziqishi bor yoshlar ro'y-xatini shakllantirib oldik, — deydi **Tolibjon Tursinboyev**. — Ularning bir qismiga imtiyozli kreditlar ham ajratildi. Yosh dehqonimiz daromad olish pallasida bo'lsa, chorvadorimiz 17 bosh naslli qo'y olib bo'yapti. Ularga havas qilgan yoshlarimizning aksariyati o'z biznes loyihalari ushtida ishlashmoqda.

Tadbirkorlik qilish istagini bo'lgan yoshlarning biznes ko'nikmalarini oshirish maqsadida tumanimizdagи "Darmen Medical Centere", "Jahongir Busines Gold", "Ahmedov Marufxon", "Dilorom Galerreyas" kabi tadbirkorlik subyektlariga olib bordik. Katta tajribaga ega ishbilar monlar bilan suhbat qilgan yoshlar biznes-reja tuzishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida tushunchalarga ega bo'ldi. Natijada yaxshi biznes g'oya ishlab chiqqan yana ikki nafar yoshga imtiyozli kredit ajratish arafasida turibmiz. Kredit olish istagini bildirgan yoshlardan biri chiqindini qayta ishlaydigan kichik korxona faoliyatini, yana biri uzum bog'lari uchun beton ustunlar ishlab chiqarishni yo'nga qo'yamoqchi.

TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA MAHALLADAGI YOSHLAR YETAKCHILARI UCHUN 14 BANDDAN IBORAT TALABALAR ISHLAB CHIQQILIB, 1020 TA MAHALLA QIZIL, SARIQ, YASHIL TOIFALARGA AJRATILDI.



YANGI LOYIHA

Zangiota tumanidagi "Bog'zor" mahallasi yoshlariga yetakchilik qilayotgan **Shohsanam Meliqo'ziyeva** yoshlarning bo'sh vaqtini mazmun olib kira organi bilan ajralib turadi.

— Yoshlar bandligini ta'minlash bilan birga, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelyapmiz, — deydi **Shohsanam Meliqo'ziyeva**. — "Sadoqat" bog'i hamda 35-maktab kutubxonasida "Kitob o'qish uchun bir kun" loyihasini o'tkazib, yoshlar o'tasida kitobxonlikni om-malashtiriyapmiz. Mazkur bog'da kutubxonadan tashqari, musiqa va aktyorlik mahorati to'garaklari faoliyati ham yo'nga qo'yildi. O'g'il-qizlar ushbu to'garakkarda turli cholg'u asbolarini chalishni o'rganyapti.

Yoshlarni teran fikrashga o'rgatuvchi "Zakovat", shaxmat-shashka kabi intellektual musobaqlarini ham muntazam o'tkazib kelyapmiz. Kechki soat 17:00 dan 23:00 ga qadar maktablarda yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratib berilgani ular orasida sog'lom turmush targ'ibotiga xizmat qilmoqda.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



**QIZIL MAHALLALAR SONI
382 TA (37,5%);**

**SARIQ MAHALLALAR SONI
556 TA (54,8%);**

**YASHIL MAHALLALAR SONI
76 TA (7,45%).**

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida 298 ta mahalla qizil toifadan chiqarildi. Ikkinci chorak yakuniga qadar barcha mahallalarni qizildan chiqarish, yil oxirigacha esa 1020 ta mahallaning hammasini yashilga o'tkazish rejalashtirilgan.

Mazkur natijaga erishish, albatta, oson bo'lmaydi. Bunda viloyat yetakchilaridan katta mas'uliyat, tashabbuskorlik va mehnat talab qilinadi.

Ular bildirilgan ishonchni chuqur his qilib, yoshlar bilan ishlashtida yangicha yondashuv va g'oyalarni amaliy harakatga aylantirishi lozim.

BO'LAJAK YULDUZZALAR



Sakkizta yirik tanlov va musobaqani o'zichiga oлган "Besh tashabbus olimpiadasi" respublika bo'yib qizg'ini davom etmoqda. Bahslar yoshlari o'tasida g'alabaga intilish, do'stona raqobat muhitini yaratishga xizmat qilmoqda.

Kecha "Yoshlari ovozi" tanloving Xorazm viloyati bosqichida 10-15, 16-22, 23-30 yosh toifalari bo'yicha 122 nafar iste'dod egasi baxshichilik, an'anaviy ijoba, opera va estrada yo'naliishlarida iste'dod va mahoratini sinovdan o'tkazdi.

Xorazm - xushovoz xonandalardan yurti. Bu diyorda san'atga muhabbat avvaldan yuqori bo'lib kelgan. Shu bois tanloving viloyat bosqichi ko'tarinkin kafiyatda o'tdi. Zo'r lar ichidan zo'r lar ni tanlab olish qiyin kechgan bo'lsa-da, munosiblar e'tirof etildi.

Tanlov yakunida uchta yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lg'a kiritgan yoshlari respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Namangan viloyatida tanloving quyi - mahalla, sektor, tuman bosqichlarida 21 minga yaqin yosh ishtirok etdi. Ular orasidan saralanib, viloyat bosqichiga yetib kelgan 90 nafar shirali ovoz sohiblarining bellashushi yanada murosasiz bo'ldi.

Shubhasiz, bu tanlov mamlakatimizning barcha nuqtalaridagi san'atga qiziquvchi iste'dodli yoshlarni yuzaga chiqarish uchun zo'r vosita bo'lmoqda. Namangan yoshlari ham imkoniyatdan unumli foydalangan holda o'z mahoratlarini sahnada namoyon qilishdi. Ular orasida eng zo'r lar bunga loyiq ekanligini isbotlash uchun respublika bosqichiga yo'l oladi.

Tanlov g'oliblari va ishtirokchilar tashkilotchilarning qimmatbaho sovg'alari, maxsus diplom va faxriy yorilqlar bilan taqdirlandi.

Lobar QODIROVA

Bahoriy bayram tomoshalarida xalqimizning qadimiy urf-odat, milliy an'ana va marosimlari namoyish etiladi. Shu tariqa milliy merosimiz avloddan avlodga o'tib boraveradi. Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumani 205-maktabda o'tkazilgan "Mehr bayrami" shunday milliy ruh bilan yo'g'irdi.

Bezatilgan sahnada ko'rkam liboslardagi o'g'il-qizlar yasharish faslini madhi etuvchi kuy-qo'shiqlar kuylashdi, bahoriy taomlarning foydalarini va tayyorlanishi haqida muroq bilan so'zlashdi. Shuningdek, bolalar ko'klam bilan bog'liq afsona va rivoyatlar aks etgan sahnalarni mo'hrona ijro etishdi.



Muhabbat XO'JAMURODOVA

"MIEHR BAYRAMI"



"QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR" RESPUBLIKA TANLOVI



TANLOV SHARTLARI

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR



TANLOV YOSH TOIFASI


16 YOSHDAN
30 YOSHGACHA




"Tanishuv" shart



"Qisqa hazillar" shart



"Musiqiy chiqish" shart



"Vatan madfi" shart

TANLOV BOSQICHLARI O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

26-APREL

MAHALLA BOSQICHI

MAHALLADAGI

talim muassasalar yoki madaniyat markazlarida

Tanloving hududiy va respublika bosqichlari televizion formatida o'tkaziladi

4-MAY

SEKTOR BOSQICHI

SEKTORDAGI

talim muassasalar yoki madaniyat markazlarida

Tanlova 250 MING dan ortiq yoshlari qamrab olinishi kutlimoqda

14-MAY

TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI

MADANIYAT

markazida

Tanlova ishtirokchilar @YOSHLARMUROJAATI_BOT orqali ro'yxatdan o'tadi

30-MAY

HUDUDIY BOSQICH

YOSHLAR

markazida

Xarajatlar hududiy "YOSHLAR DAFTARI" jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiladi

25-IYUN

RESPUBLIKA BOSQICHI

TOSHKENT

shahridagi Turkiston saro'yida

1 MAHALLA BOSQICHI

26-APREL

- 1 Mahallada joylashgan ko'chalar kesimida tanlova ishtirok etmoachi bo'lgan 16-30 yoshdag'i (11 nafar) jamaoa shakllanitirildi va jamaoolarning arzolari telegramdaq @yoshlarmuropaati_bot yoki mahalla yetakchisi orqali qabul qilinadi

- 2 Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamaoa tanloving keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'ga kirtadi

3 TUMAN(SHAHAR) BOSQICHI

14-MAY

- 1 Tuman(shahar) bosqichida sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamaoalar o'zaro bellashadir

- 2 Tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamaoa tanloving keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'ga kirtadi

2 SEKTOR BOSQICHI

4-MAY

- 1 Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamaoalar sektor bosqichida o'zaro bellashadi

- 2 Sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamaoa tanloving keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'ga kirtadi

4 HUDUDIY BOSQICH

30-MAY

- 1 Hududiy bosqichda tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamaoalar o'zaro bellashadilar

- 2 Hududiy bosqichda g'olib bo'lgan jamaoa tanloving keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'ga kirtadi

5 RESPUBLIKA BOSQICHI

25-IYUN

- 1 Hududiy bosqichda g'olib bo'lgan ishtirokchilar yakunty bosqichida o'zaro bellashadi

- 2 Tanlov Toshkent shahridagi Turkiston saro'yida o'tkaziladi

- 3 Tanlov g'oliblari gala-konsert dasturida taqdirlanadi

Mushtariylarning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida gазетамизда yangi – "Moliya kundaligi" rukni yo'ga qo'yilmоqda. Bu yerda moliyaviy bilimlar, soha mutaxassisleri va tashkilotlar faoliyati haqida tur-kum materiallar berib boriladi.

Nurillo TO'XTASINOV,
Bank-moliya akademiyasi
MBA magistranti

SOF

BOYLIK QIYMATINGIZ QANCHА?

Ilk maqolada sof boylik qiymatimizni bilish mavzusida suhbatlashamiz.

Sizning sof boylik qiymatingiz aktivlaringizning majburiyatlaridan ortgan miqdori. Oddiy qilib aytganda, sof moliyaviy qiymat egalik qilayotgan mulkingiz va qarzingiz o'rtafiga farq. Agar aktivlaringiz miqdori majburiyatlaridan oshsa, siz ijobji soy qiymatiga egasiz. Aksincha, majburiyatlarining aktivlaringizdan katta bo'lsa, sizda salbiy sof qiymat mavjud.

Sof qiyatingiz hozirgi vaqtida moliyaviy ahvolingizning qisqa-cha tasvirini beradi. Uni har choraq yoki yilda bir tahsil qilib borish moliyaviy ahvolingizni yaxshiyadi yoki mazmuni qiladi. Jumladan, o'zingizning sof qiyatingizni hisoblash orqali hozirgacha ishlab topgan va sarflaganlariningizning yakuni natijasini ko'rasiz.

SOF QIYMAT

Aktivlar naqd pulga aylanishiga mumkin bo'lgan shaxsiy mol-mulkiy. Masalan, investitsiyalar, bank va brokerlik hisoblari, pensiya jamg'armalari, ko'chmas mulk va shaxsiy mulk (avtomobil-lar, zargarlik buyumlari va kolleksi-yalar) va, albatta, naqd pulning o'zi. Shaxsiy ijtimoiy tarmog'ingiz kabi nomoddiy obyektlar ham ba'zan aktivlar deb qaratadi. Sizning majburiyatlarining esa kreditlar, ipotekalar, kredit karta qarzlarli, tibbiy to'lov va boshqa shu kabi qarzlarining ifodalaydi. Sizning aktivlaringiz va majburiyatlarining umumiy qiyatni o'rtafiga farq sizning sof qiyatingizdir.

Sof qiyatni real baholash uchun aktivlarga qiyat qo'yishda konservativ hisob-kitoblar zarur. Masalan, sizning uyingiz eng qimmatli aktivning bo'lib, moliyaviy ahvolingizga sezilarli ta'sir ko'sata di. Hududingizda yaqinda sotilgan shunga oxshash uylar bilan taqqoslash yoki malakali ko'chmas mulk

bo'yicha mutaxassis bilan maslahatlashish orqali uyning aniq qiyatni aniqlanadi.

Yana bir masala, shaxsiy turarjoylar sof qiyatni hisoblash uchun aktiv sifatida ko'rib chiqilishi kerakmi yoki yo'qmi, degan bahslar mavjud. Ba'zi moliya ekspertlari ga ko'ra, uyni kapital va uning bozor qiyatini aktiv deb hisoblash lozim, chunki bu qiyatlar sotilgan taqdirda naqd pulga aylanadi.

Boshqa mutaxassislar fikricha, agar uy egasi uyni sotishdan naqd pul olgan bo'lsa ham, bu pul boshqa uyni sotib olish yoki ijara olish uchun ketishi kerak. Bu mohiyatan naqd pul yangi majburiyatga – uy-joyni almashtirish qiyatiga aylanishini anglatadi.

BU NIMA DEGANI?

Sof qiyat ko'p narsadan sozlaydi. Agar ko'satikch salbiy bo'lsa, bu sizning haddingizdan ko'ra ko'proq qarzdar ekanligingizni anglatadi.

Misol uchun, aktivlaringiz shartli 200 000 000 so'mga teng bo'lib, majburiyatningiz 100 000 000 so'm bo'lsa, siz 100 000 000 so'm ijobji sof qiyatiga egasiz. Aksincha, aktivlaringiz 100 000 000 so'mga teng bo'lsa-yu, majburiyatlarining 200 000 000 so'mdan oshsa, siz minus 100 000 000 so'm (100 000 000 - 200 000 000 = -100 000 000) salbiy sof qiyat egasisiz. Demak, hozir sizda aktivlardan ko'ra majburiyatlar ko'proq.

“

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI KABI SIZNING SOF QIYATINGIZ HAM O'ZGARIB TURADI. IDEAL HOLDA SIZNING SOF BOYLIGINGIZ YOSHINGIZ ULG'AYGANI SARI O'SISHDA DAVOM ETADI – QARZNI TO'LASH, UYINGIZNING O'Z KAPITALINI QURISH, KO'PROQ AKTIVLARGA EGA BO'LISH VA HOKAZO.

Har bir insonning moliyaviy ahvoli va maqsadlari o'ziga xos bo'lgani sababli hamma uchun



amal qiladigan umumiyl "ideal" sof qiyatni aniqlash qiyin. Buning or'ninga siz o'zingizning ideal qiyatingizni – yaqin va uzoq muddatli kelajakda qay holatda bo'lishni xohlayotganingizni aniqlashingiz kerak bo'laadi. Agar siz buni qanday boshlashni bilmasangiz, "maqsadli" sof qiyatni aniqlashda quyidagi formulani taklif etamiz:

Maqsadli sof qiyat= [Sizning yoshingiz-25]*[1/5*Yillik yalpi daromad]

Masalan, yillik yalpi daromadi 75 000 AQSH dollarini bo'lgan 50 yoshli odam 375 000 dollarlik sof boylikka intilsa bo'laadi ($(150-25=25) \times [75\ 000/5=15\ 000\ AQSH\ dollaril]$). E'tibor bering, bu 50 yoshli barcha odamlar bix boylikka ega bo'lishi kerak degani emas. Formuladan oddiygina boshlang'ich nuqta sifatida foydalanish mumkin. Sizning ideal sof qiyatingiz turush tarzingiz va maqsadlaringizga qarab yo'riqnomada ko'satilgan miqdordan anchra ko'p yoki kamroq bo'lishi mumkin.

OQILONA SARFLANG

Sof boylik qiyatingizni bilish xarakatlariningizni nazorat qilish va barqarorlashtirish imkonini beradi. Diqqat qiling, biron narsani sotib olishga qodirligingiz uni sotib olishingiz kerak degani emas. Qarzdarlikdan saqlanish uchun biron narsa xarid qilishdan oldin u chindan zarur ekanligini o'ylab ko'ring. Ko'pincha odamlar ehtiyojini noto'g'ri tahlil

qiladi. Xususan, 500 dollarlik poyabzal oyoq kiyimga bo'lgan ehtiyojni qondiradi, ammo arzonrog'i ham shu vazifani bajara oladi. Ehtiyojni to'g'ri baholash sizni to'g'ri moliyaviy yonalishda ushlaydi.

SAQLASH VA INVESTITSIYA QILISH

Agar sizning sof boylik qiyatingiz moliyaviy maqsadlaringizga erishish yo'lida ekanligingizni ko'satsa, qilayotgan ishingizni davom ettirishingiz lozim. Aksincha bo'lsa, (masalan, vaqt o'tishi bilan sizda kamayib borayotgan aktivlar va o'sib borayotgan majburiyatlar bo'lsa), sizdan pulingizni tejash va investitsiya qilishda ehtiyojkor yondashuv talab etiladi.

SOF DAROMAD VA QIYMAT O'RТАSIDAGI FARQ

Agar siz ishlasangiz yoki biznes bilan shug'ullansangiz, daromad olasiz. Sizning sof daromadingiz soliqlar va ish haqi ajratmalaridan qolgan summadir. Sof qiyatingiz esa siz egalik qilgan narsalarning umumiyl qiyatidan barcha qarz-majburiyatlarining chegirib tashlaganiningiza qoladigan farqdir.

LIKVID SOF QIYAT NIMA?

Likvid sof qiyat – bu zargarlik buyumlari yoki mulk, ya'ni osonlik bilan naqd pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan sof qiyatingizning bir qismi.

ISHLAB PUL TOPING

"Bilim uchun 100 million" loyihasining 3-tur savollari @bilimtestbot telegram botida e'on qilindi. Mazkur olimpiadada ishtirok etish uchun halil ro'yxatdan o'tmagan yoshlarda hozir ham imkon bor.

3-tur savollarini 25-aprelga qadar o'zingizga qulay soatda tarmoqqa kirib, ishlashtirish mumkin. 1- va 2-turda ishtirok etmagan bo'lsangiz ham 3-turda qatnashish huquqiga ega bo'lasiz. @bilimtestbotda ro'yxatdan o'ting va test ishlang.


Ma'lumot uchun, olimpiadaning 1- va 2-turda 108 088 nafar ishtirokchi qatnashdi. Hozirda finalgacha bo'lgan bosqichlarda faoliyati etgan va yuqori natija qayd etgan ishtirokchilarni taqdirlab borish rejalashtirilaydi.

“KECHA”NING “KUNDUZI” QACHON YOZILADI?



QIYIN VA
KAMYOB NASHR

Asarning yozilishidan to chop etilishigacha bo'lgan taqdiri: 1934-yil – asar yozib tuggallandi, 1935-yil – “Sovet adabiyoti” jurnalining 1-sonida e'lon qilindi. Nihoyat, 1936-yilning oxiriga kelib roman ko'plab qiyinchiliklar bilan kitob holida chop etildi. 1937-yilning avgustida Cho'lpon hibsga olingach matbuot bu haqda qayta “og'iz ochmadi”.



Papiros qutisiga she'r yozib, markaziy idoralardan biriga tashlab ketgan shoir haqida eshitgannmisiz? (Batafsil K. Aliyevning 1927-yil 12-oktabrdagi “Qizil O'zbekiston” gazetasida chop etilgan “Aqli jinni” maqolasida.)

Ham nasr, ham nazm, ham dramaturgiyada birdek ijod qilgan, 1913-1914-yillarda adabiyot olamiga “Qalandar”, “Andijonlik” taxalluslari bilan kirib kelgan va tong yulduzi kabi zulmatda “yarq” etib ko'zga tashlangan bu iste'dodga Munavvarqori Abdurashidxonov munosib taxallus tanlaydi – CHO'LTON! Bugun siz bilan adabiyotimiz yorug' yulduzining “Kecha va kunduz” asari haqida har qayerda ham aytilavermaydigan, uchratish qiyin bo'lgan ma'lumotlar haqida suhbatlashamiz, bahs-munozara qilamiz, savollar beramiz va birga javob izlaysiz.

MUHOKAMA UCHUN 4-5 KISHI

Roman yozib tugallanib, taqdim etilgach, rasmiy adabiy jamoatchilikning harakatsizligi tufayli Yozuvchilar uyushmasida Cho'lponning romani qo'lyozmasi muhokama qilinishi istakligicha qolib ketdi. Romanni muhokama uchun o'qish jarayonida boryo'g'i 11 kishi, 2-qismning o'qilishida 7 kishi qatnashgan bo'sha, 3-qism muhokamasiiga 4-5 kishidan boshqa hech kim kelmadи.

2-QISM BADIY NIYAT EDI... (MI?)

“Kunduz” deb nomlanishi kerak bo'lgan bu kitob haqida aniq mal'umotlar deyarli yo'q. Lekin bu bizni taxmin va tasavvur qilish imkoniyatidan ayira olmaydi. Asarning ikkinchi qismi, albatta, yozilishi kerak bo'lgan va, balki, yozilgandir ham. Bu xulosani biz Zebi, ayniqsa, Miryoqub obrazlariga tayanib aytal olamiz.

ZEBI FOJIASI

Asardagi Razzoq so'fi va Qur'onbibi kabi ota-onalar, Zebiga o'xshash farzandlar, umuman oilalar taqdiri o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayatida juda ko'p uchragan. Jadidlarning bosh maqsadi ham so'nggi qurbanни asrab qolish va keyingi fojيانing oldini olish edi. Mudrab qolqantar o'z vaqtida uyg'onishi uchun ham asarda Razzoq so'fining ko'zlari tirkab ochildi.



O'QING, UQING, SAVOLLARGA JAVOB YO'LLANG VA MUKOFOT EGASIGA AYLANING!!!

Endi esa oramizda asarga qiziqib qolgan va hali o'qib chiqishga ulgurmagam yoshlarini multolaaga undaymiz, nafaqat o'qib, balki uqib, tayyorlagan savollrimizga to'g'ri va to'liq javob berib, tahririyatning sovg'asiga ega bo'lish imkonini qoldan chiqarmang! Demak, bizning savollar:

- Qaysi obrazga qarata “Ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa mahluqlardan edi” deb ta'rif beriladi?
- Asardagi “Suv bo'limasa, tayammumga yaraydigan” ashulachi?
- Kimning otasi mingboshining yer-suviga, davlatiga qiziqib, “yax” (yo'q) deb turib oldi?
- Qaysi xabarni eshitganda “Ikkala kundoshning ko'zlarini bordaniga, o'g'il ko'rganini xabar olgan otaning ko'zlariday ravshan bir olov bilan charaqladi?”
- Akbaralini oddiy kiyimda ko'rganlar kim deb o'ylaydi?
- Rus to'ralari qaysi adibning asaridan ham so'zda, ham ishda juda yaxshi xabardor edilar?
- Mingboshi kimni “kofir”ning va “orus”ning bolasi ekaniga qaramay, mahkam bag'riga bosib, o'pdii?
- Miryoqub qaysi holatga bezovta bo'laversa, 4 kunda sil bo'lib qolishi mumkinligi aytilgan?
- Noib To'ra Akbaralini chaqirtirib, suhbat davomida “Yurtning esli, obro'li odamlari” deganda kimni nazarda tutdi?
- Kim Zebini “Ovozi Dovud payg'ambarni singari” deb ta'riflайди?
- Jadidlar tomonidan haftada ikki bor zo'rg'a chiqariladigan gazetada chop etilgan Akbaralni mingboshi haqidagi tanqidagi maqola muallifi kim edi?
- Jadidlar qaysi mingboshini “osmonga ko'tarib, maqtab yozishadi”?
- Umrida ko'magan 10 so'mlik pulning naqshlariga qarab Qur'onbibi nimalarni o'yadi.

Javoblar joriy yilning 10-may sanasiga qadar yoshlar-ovozi@mail.ru elektron pochta manziliga yuborilishi kerak.

ISHONCHLI AXBOROT MANBAYI

Shayxontohur tumanidagi “Olmazor” makhallasida mamlakatimizda 2023-yili aholini ro'yxatga olishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda Toshkent shahridagi statistika bo'limlari mutaxassislari aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida tushunchalar berdi. Bu umum davlat miqyosidagi keng ko'lamli tadbir bo'lib, aholi to'g'risidagi ishonchli axborot manbayi hisoblanadi.



Uchqun KARIMOV,
Uchtepa tumanı statistika bo'lim bosligi

TIL BILIMI

“ALVON” “QIZIL” DEGANI EMAS!

“O'zbek tilining izohli lug'ati”dayam, tilshunoslik, lug'atshunoslikka oid boshqa manbalardayam alvon so'zi qizil, qirmizi, ol so'zlariga sinonim o'larop qo'llanadi.

Aslida alvon arabcha lavn (rang, tus) so'zining ko'pligi bo'lib, ona tilimizga ranglar, tuslar, bo'yoqlar deb o'giriladi.

Ba'zan qol'lanish o'miga qarab alvon so'zi turfa xil, turli-tuman ma'nosida ham ishlatalildi.

TIYINNING SUVSARGA BOG'LIQLIGI NIMADA?

Xayreddin MUROD

Xi asrda suvsar tiyin deb atalgan. Hali pul muomalada bo'limagan kezleri odamlar turli jonivorlar mo'ynasi qatori tiyinning terisidan ham oldi-sotdida foydalangan.

Keyinchalik bu so'z pul birligi sifatida tilimizdan muqim joy egallagan.



"YOSHLAR-KELAJAGIMIZ"
JAMG` ARMASI

Biznes, tadbirkorlik, tahlil,
kasbiy ta'lim hamda konsalting
xizmati kabi sohalarning
barchasini birdaniga
qamrab olish hamda ular
bilan shug'ullanish ilojsizdek
ko'rinyaptimi? Xulosa qilishga
shoshilmang!

Zero, yoshlarning jamiyatda
o'z o'rnini egallashiga yordam
berishni maqsad qilgan
"Yoshlar – kelajagimiz"
jamg`armasi bunda sizga
ko'mak berishga tayyor.

*-Kelajakni birga yaratamiz!
-Imkoniyatni qo'ldan boy bermang!*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar doirasida jamg'arma 25 dan ortiq yo'nalishda o'z faoliyatini davom ettiradi.

- Xususan, yoshlar ishtirokida har bir mahallada yosh tadbirkor liderlari jamoasi shakkantiriladi;
- startap loyihalari grant mablag'lari ajratiladi;
- xalqaro miyosda yuqori nufuzga ega notiqlar ishtirokida motivatsion tadbirlar, xalqaro biznes forum va yarmarkolar o'tkaziladi;
- yoshlarga huquq, buxgalteriya, marketing, brending, bank, sug'urta, mehnat va boshqa sohalarda konsalting xizmatlari ko'satiladi;
- eng asosiyisi, yoshlar talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga onlays platforma orqali o'qitiladi.

📞 71 207 40 11

Mazkur tadbirlar orqali 2022-yil yakuniga qadar
850 000 nafardan ziyod yoshlar qamrab olinadi.
Ushbu loyihalarda 31 yoshgacha bo'lgan barcha
yoshlar ishtirok etishi hamda o'z tadbirkorligini
boshlashi, rivojlantirishi mumkin.

📱 yoshlarkelajagimiz

➡️ ykfoundation

➡️ ykfoundationuz

🌐 yoshlarkelajagimiz.uz

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kangashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Arborot va emmaviy kommunikatsiyalar agentligida
2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (71) 233-22-18, (71) 236-79-99.

"Sharg" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabog. Karkona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxa. Buyurtma G-455. Adadi – 10573. Bosishga topshirish vaqt – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish
uchun QR-kodini
telefoningiz orqali
skanner qiling.



1 2 3 4 5 6